



texnik bazasini zamonaviy talablarga moslashtirish, pedagog kadrlarni inkluziv yondashuvlar bo'yicha tayyorlash, ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish, texnologik imkoniyatlardan foydalanish va qonuniy asoslarni mustahkamlash kabi masalalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[8] Inkluziv ta'lim orqali barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, shuningdek, stereotiplar va ijtimoiy to'siqlardan holi ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta'lim resurslari va pedagogik dasturlar inkluziv ta'limni yanada samarali qiluvchi vositalar sifatida muhim o'rin tutadi, lekin ularning barcha talabalarga teng taqsimlanishi va qulaylik yaratishi ta'minlanishi zarur. Inkluziv ta'limni rivojlantirish orqali nafaqat nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarning, balki barcha talabalar va o'qituvchilarning ijtimoiy va pedagogik rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi. Shunday qilib, inkluziv ta'limning dolzarb masalalarini hal etish jarayoni kompleks va uzluksiz yondashuvni talab qiladi, bu esa ta'lim tizimini yanada adolatli, samarali va barqaror qiluvchi muhim qadam sifatida namoyon bo'ladi, hamda har bir talabaning o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga sharoit yaratadi.[9]

References

1. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). Improving schools, developing inclusion. Routledge.
2. Armstrong, F. (2010). Inclusive education: Policy, contexts and comparative perspectives. Routledge.
3. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. SAGE Publications.
4. Loreman, T., Deppeler, J., & Harvey, D. (2010). Inclusive education: Supporting diversity in the classroom. Routledge.
5. Mittler, P. (2000). Working towards inclusive education: Social contexts. David Fulton Publishers.
6. Norwich, B. (2008). Dilemmas of difference, inclusion and disability: International perspectives. Routledge.
7. UNESCO. (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: UNESCO.
8. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and education. Paris: UNESCO Publishing.
9. Vlachou, A. (2010). Education, inclusion and social justice. Cambridge Scholars Publishing.
10. Wright, P., & Dyson, A. (2012). Inclusive education: Principles and practices. Bloomsbury Academic.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA GEOMETRIYAGA OID FAZOVIIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
zn.ortiqova@gmail.com

Qodirova Mubinaxin Zuxriddin qizi Farg'ona davlat universiteti magistranti
qodirovamubinaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometriyaga oid fazoviy tasavvurlarni shakllantirish jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada o'quvchilarning fazoviy tasavvur va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsion metodlar, interaktiv topshiriqlar va ijodiy yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Natijada, geometrik tushunchalar orqali o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va tizimli fikrlashni shakllantirishning samarali yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: geometriya, fazoviy tasavvur, kreativ fikrlash, boshlang'ich ta'lim, innovatsion metod.

DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN THE PROCESS OF FORMING SPATIAL ILLUSTRATIONS ABOUT GEOMETRY IN PRIMARY GRADE STUDENTS

Ortikova Zulfiya Nurmakhamatovna

Fergana State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences,
zn.ortiqova@gmail.com



Qodirova Mubinakhin Zukhrudin kizi, Master's student of Fergana State University
godirovamubinaxon@gmail.com

Annotation: This article discusses the development of creative thinking in the process of forming spatial concepts related to geometry among primary school students. The importance of innovative methods, interactive tasks, and creative approaches in enhancing students' spatial imagination and logical reasoning is analyzed. As a result, effective ways to foster independent, creative, and systematic thinking through geometric concepts are substantiated.

Keywords: geometry, spatial thinking, creative thinking, primary education, innovative methods.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ ИЛЛЮСТРАЦИЙ ПО ГЕОМЕТРИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ортикова Зульфия Нурмахаматовна
Ферганский государственный университет, доктор философии по педагогическим наукам,
zn.ortiqova@gmail.com
Кадилова Муфинахон Зухридин кизи, магистрант Ферганского государственного университета,
godirovamubinaxon@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития креативного мышления в процессе формирования пространственных представлений по геометрии у учащихся начальных классов. Проанализировано значение инновационных методов, интерактивных заданий и творческого подхода в развитии пространственного воображения и логического мышления учащихся. В результате обоснованы эффективные пути формирования самостоятельного, творческого и системного мышления через геометрические понятия.

Ключевые слова: геометрия, пространственное мышление, креативное мышление, начальное образование, инновационные методы.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, boshlang’ich sinf bosqichida o’quvchilarning fazoviy tasavvurlari va geometrik fikrlash malakalarini rivojlantirish orqali ularning kreativ tafakkurini oshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki geometriya bolalarda shakl, hajm, joylashuv va fazoviy munosabatlarni anglash orqali atrof-muhitni ongli idrok etishga yordam beradi. Shuningdek, kreativ fikrlash o’quvchilarga yangi g’oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yechim topish hamda o’rganilgan bilimlarni amaliyotda qo’llay olish imkonini yaratadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Kuzatish va suhbat — o’quvchilarning geometriyaga oid bilimlarini aniqlash va ularning ijodiy fikrlash darajasini baholash uchun;

Tajriba-sinov ishlari — o’qituvchining kreativ metodlar asosida dars tashkil etishining samaradorligini aniqlash maqsadida;

Tahlil va taqqoslash — mavjud metodik manbalar, ilg’or tajribalar va zamonaviy yondashuvlarni o’rganish orqali nazariy asos yaratiladi.


Amaliy bosqichda o’quvchilarga geometrik shakllarni chizish, ularni birlashtirish orqali yangi figuralar yaratish, 3D konstruktorlar bilan ishlash, qog’ozdan modellar yasash kabi kreativ topshiriqlar beriladi.

Bundan tashqari, geometrik mashg’ulotlarga kreativlik elementlarini qo’shish o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.


1-sinf matematika darsligida o’quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun quyidagicha topshiriqlar berilgan:



3. Ushbu minorani yasash uchun qanday shakllar kerak bo'lgan? Minorada nechta kub bor? Qanday kub ko'proq: qizilmi, sariqmi yoki yashilmi? Eng balandda qanday shakl turibdi? Eng pastki qatorda nechta kub bor?



. To'rtta bir xil kubdan shakl hosil qilindi. Agar bu shaklga tepadan qarasangiz, nimani ko'rasiz? To'g'ri shaklni aylanaga oling.(15-bet 7-misol)



Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish jarayonida kreativ yondashuv o'quvchilar tafakkurining faol, mustaqil va mantiqiy yo'nalishda rivojlanishiga sabab bo'ladi. An'anaviy metodlarda o'quvchi ko'proq kuzatuvchi bo'lsa, kreativ metodlarda u faol ishtirokchiga aylanadi. Geometrik shakllarni o'rganish jarayonida rangli karton, konstruktor, LEGO, 3D modellash dasturlari va ijodiy o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi.

Shuningdek, kreativlikni rivojlantirish uchun o'qituvchi darsda savol-javob, mantiqiy topshiriq, loyiha ishlari, guruhli muhokama kabi interfaol metodlardan foydalanishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometriyaga oid fazoviy tasavvurlarni shakllantirish bilan birga ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Shunday ekan, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi geometriya darslarida kreativ yondashuvlardan unumli foydalanishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometriyaga oid fazoviy tasavvurlarni shakllantirish nafaqat matematik bilimlarni o'zlashtirish, balki ularning tafakkurini, ijodiy yondashuvini, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning atrof-muhitni idrok etish, shakllar, o'lchamlar va joylashuvni aniqlash ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu esa ularda real hayotdagi masalalarni hal qilishga tayyorlikni shakllantiradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, interaktiv metodlar, o'yinli mashg'ulotlar va vizual materiallar o'quvchilarda matematika faniga qiziqishni oshiradi, o'z fikrini erkin ifodalash, muammoga noodatiy yechim topish qobiliyatini kuchaytiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda geometriya elementlarini o'qitish jarayoniga kreativ yondashuvni joriy etish — o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fazoviy tafakkur va ijodiy salohiyatni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'raev, R. (2019). Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Tursunov, U., va Ergasheva, M. (2021). Matematika o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Tojiboeva, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti.
4. Repyova I.V. 1-sinf . Matematika. Darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti. 2023